



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2026 Issue 2

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2026.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



AN'ANAVIY MA'NAVIY TA'LIMOT VA IJTIMOIIY-HUQUQIY TIZIMNING SHAKLLANISH MEKANIZMLARI

Karimov Kaxramon Sadikovich

Qo'qon davlat universiteti dotsenti, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

e-mail: qahramonjob876@umail.uz, Тел: +998905886488

<https://orcid.org/0009-0006-2397-8572>

Annotatsiya. Mazkur maqolada islomiy ma'naviy ta'limot hamda qozilik mahkamalarida shakllangan huquqiy-hujjatiy amaliyotning o'zaro bog'liqligi kompleks ilmiy tahlil asosida yoritiladi. Diniy-axloqiy qoidalarining ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi o'rni, fiqhiy me'yorlarning huquqiy hujjatlar orqali amaliyotga joriy etilishi hamda qozilik institutining jamiyat barqarorligidagi ahamiyati ochib beriladi. Shuningdek, huquqiy hujjatlarning shakli va mazmuniy xususiyatlari, ularning ijtimoiy-tarixiy qiymati metodologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: islomiy ma'naviyat, fiqh, qozilik mahkamasi, huquqiy hujjatlar, vaqf, ijtimoiy tartib, adolat.

Kirish. Sharq sivilizatsiyasida diniy ta'limot va huquqiy amaliyot o'zaro uyg'un holda rivojlangan tizim sifatida namoyon bo'ladi. Islom dini inson hayotining faqat ibodat sohasinigina emas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy munosabatlarni ham tartibga soluvchi mukammal qoidalar majmuini shakllantirgan. Shu bois islomiy ma'naviy merosni huquqiy hujjatlardan ajratgan holda o'rganish to'liq ilmiy tasavvur bermaydi.

Qozilik mahkamalari faoliyatida tuzilgan hujjatlar diniy-fiqhiy me'yorlarning amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'lib, jamiyatda adolat, qonuniylik va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim o'rin tutgan. Maqolada aynan shu uyg'unlikni ochib berish, diniy ta'limot va huquqiy amaliyotning yagona ijtimoiy mexanizm sifatida qanday ishlaganini ko'rsatish asosiy maqsad qilib olingan.

Tadqiqotning metodologik asoslari. Tadqiqotda kompleks yondashuv qo'llanilib, qiyosiy-tahliliy, tizimli va funksional metodlardan foydalanildi. Islomiy ta'limotlardagi axloqiy va fiqhiy qoidalar huquqiy hujjatlar mazmuni bilan solishtirib tahlil qilindi. Shuningdek, huquqiy hujjatlarning shakli va belgilari, mazmuniy tuzilishi va ijtimoiy funksiyasi ijtimoiy-tarixiy kontekstda baholandi.

Metodologik yondashuv diniy matnlarni nazariy manba sifatida, qozilik hujjatlarini esa amaliy huquqiy tajribaning yozma ifodasi sifatida qarashga asoslanadi. Bu esa diniy va huquqiy institutlarning o'zaro bog'liqligini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Islomiy ta'limot insonning ma'naviy kamolotini jamiyat barqarorligi bilan uzviy bog'liq holda talqin qiladi. Besh farzga asoslangan diniy majburiyatlar shaxsning ichki dunyosida mas'uliyat, intizom va halollik tamoyillarini shakllantirishga qaratilgan. E'tiqod faqat ichki ishonch sifatida emas, balki amaliy harakatlar orqali namoyon bo'ladigan ijtimoiy burch sifatida qaraladi.



Ezgu amal va gunoh ishlar o'rtasidagi qiyoslash usuli axloqiy tarbiyaning muhim mexanizmi hisoblanadi. Bu uslub insonni ongli ravishda tanlov qilishga undaydi va axloqiy qarorlarning oqibatlarini anglashga yordam beradi. Ilm esa barcha ibodat va amallarning asosi sifatida qaralib, uning ahamiyati ramziy ifodalar orqali ochib beriladi.

Fiqh islomiy ta'limotning amaliy qirrasini tashkil etadi. Unda diniy qoidalar aniq o'lcham, me'yor va shartlar bilan mustahkamlanadi. Tahorat, namoz, ro'za va boshqa ibodatlarga doir qoidalar insonning kundalik hayotida aniq tartibni ta'minlaydi.

Suvdan foydalanishga oid qoidalar faqat diniy talab sifatida emas, balki atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatni tarbiyalovchi omil sifatida ham namoyon bo'ladi. Suv havzasining shakli, hajmi va sifatiga doir talablar insonning mas'uliyatli fe'l-atvorini shakllantirishga xizmat qiladi.

Qozilik mahkamalari islom jamiyatida huquqiy munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy institut hisoblangan. Ularda tuzilgan hujjatlar jismoniy shaxslar o'rtasidagi mulkiy bitimlar, ijara munosabatlari, meros taqsimoti, nikoh va ajralish masalalarini huquqiy jihatdan mustahkamlagan.

Har bir hujjat muayyan shaklga ega bo'lib, unda tomonlarning ismlari, mulk chegaralari, guvohlar va qaror chiqaruvchi shaxslar aniq qayd etilgan. Bu holat huquqiy aniqlik va shaffoflikni ta'minlashga xizmat qilgan.

Vaqf hujjatlari jamiyatda diniy va ijtimoiy muassasalarning iqtisodiy asosini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etgan. Masjid, madrasa va boshqa xayriya muassasalari vaqf mulklari orqali moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlangan. Bu esa jamiyatda ijtimoiy tenglik va yordam tizimining shakllanishiga xizmat qilgan.

Qozilik hujjatlarining yuridik kuchga ega bo'lishi qat'iy talablar asosida ta'minlangan. Qozining vakolatini tasdiqlovchi muhr, yozma qarorning asoslanganligi, guvohlarning ko'rsatmalari va hujjatning rasmiy sanasi huquqiy kuchning asosiy shartlari hisoblangan. Bu talablar bajarilmagan taqdirda, hujjat to'liq yuridik kuchga ega bo'lmagan.

Ayrim hujjatlar jismoniy jihatdan zarar ko'rgan bo'lsa-da, ularda saqlanib qolgan ma'lumotlar tarixiy, huquqiy va etnografik jihatdan katta qiymatga ega. Ularda aks etgan shaxslar, joy nomlari va ijtimoiy munosabatlar o'sha davr jamiyatining huquqiy tafakkurini tiklash imkonini beradi.

Muhokama. Diniy-axloqiy ta'limot va huquqiy hujjatlar o'rtasidagi uyg'unlik jamiyat barqarorligining asosiy omillaridan biri bo'lgan. Ma'naviy qoidalar huquqiy shaklga keltirilib, ijtimoiy munosabatlarda aniq tartib sifatida amal qilgan.

Natijalar. "Mubayyin" — Zahiriddin Muhammad Boburning islom dini asoslarini bayon etuvchi yirik asaridir. Asar besh qismdan iborat bo'lib, ular quyidagilardan tashkil topgan: birinchi qismi — "E'tiqodiya", ikkinchi qismi — "Qitob us-salot", uchinchi qismi — "Qitob uz-zakat", to'rtinchi qismi — "Qitob us-savm", beshinchi qismi esa — "Qitob ul-haj" deb ataladi.

“Mubayyin” asarida diniy masalalar butun tafsiloti bilan chuqur ilmdonlik va yuksak badiiy mahorat asosida yoritilgan. Asar o‘zbek tilida yaratilgan e’tiborli diniy-badiiy meros namunasi bo‘lib, unda o‘zbek tilining shirasi, boyligi va ifoda imkoniyatlari to‘laligicha namoyon bo‘lgan. Shu jihatdan, u diniy va badiiy adabiyotning yorqin namunasi hisoblanadi. Kitob keng o‘quvchilar ommasiga mo‘ljallangan.

Asarning yozilish sababi sifatida, jigarbandi farzandiga otaning nasihati, ya’ni din ishlarida kamchilikka yo‘l qo‘ymaslik, farz amallarini to‘g‘ri va komil ado etish zarurati ko‘rsatiladi. Asar oson, ravon va ko‘ngil amri bilan bitilgan. Muallif umid qiladiki, tonggi xayrli amallar qanday ulug‘ savobga ega bo‘lsa, ushbu kitob mutolaasi ham shunday savobga vosita bo‘ladi.

Asarda islom dinining besh farzini ado etish ilmiy asosda, to‘liq anglab va idrok etgan holda amalga oshirishga chaqiriladi. “Mu‘min” so‘zi orqali iymon keltirilishi lozim bo‘lgan, ishonish shart bo‘lgan asosiy e’tiqod masalalariga alohida e’tibor qaratiladi.

Baytlarning birinchi misrasida islom dinida buyurilgan ezgu amallar bayon etilsa, ikkinchi misrada ularga zid bo‘lgan gunoh ishlar keltiriladi. Bu uslub kitobxonni fikriy jihatdan chuqur mulohaza qilishga undaydi.

Asarda Alloh taoloning sifatleri she’riy shaklda bayon etilgan. Ilmning beqiyos ahamiyati “tog‘dagi toshlar va tuzdagi qum adadicha” deb tashbeh qilingan.

Muallif Payg‘ambar Muhammad s.a.v haqida alohida to‘xtalib o‘tadi. Namoz masalalari keng yoritilib, ibodat odobiga doir tahorat uchun ishlatiladigan suv miqdori haqida ham batafsil ma’lumot berilgan. Xususan, tahorat suvini “aqalli”, ya’ni eng kam miqdorda, imkoni boricha “pari koh”, ya’ni somon donasi hajmidagi idishdan foydalanib ishlatish tavsiya etiladi.

Shu o‘rinda fiqhga oid masalalar bayon qilinadi. Oqar suvdan foydalanish halol ekani ta’kidlanib, turg‘un holdagi suvdan tahorat olish tartibi haqida quyidagicha ma’lumot beriladi: agar suv havzasi “murabba” (مربع), ya’ni to‘rtburchak shaklda bo‘lib, uning “muhit” (محيط), ya’ni atrofi qirq qarich bo‘lsa, undan “dah dar dah”, ya’ni o‘n qarichdan o‘n qarich o‘lchamda suv olish mumkin.

Agar suv havzasi “mudavvar” (مدور), ya’ni dumaloq shaklda bo‘lsa, unda o‘ttiz olti qarich o‘lchamda bo‘lishi lozimligi aytiladi. Suv havzasi uzun shaklda bo‘lsa, yuz qarich hisoblab tahorat olish shart qilingan.

Shuningdek, suv havzasining “arz” (عرض) — eni, “umq” (عمق) — chuqurligi, “tuvi” (طول) — uzunligi va “lavni” (لون) — rangi ham inobatga olinishi lozimligi ta’kidlanadi.

Hayvonlar go’shtini iste’mol qilish masalasida uy hayvonlaridan eshak, sichqon, mushuk, mor, lochin va qarchig‘ay go’shti mumkin emas yoki shubhali deb baholangan. Ammo tovuq go’shti iste’moli joiz deb ko‘rsatilgan. Biroq tovuqning “charoiy” (چرائی), ya’ni yovvoyi o‘t-o‘lanlar bilan oziqlangan bo‘lishi makruh hisoblanadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, islomiy ma’naviy ta’limot va qozilik mahkamalarida shakllangan huquqiy hujjatlar yagona ijtimoiy-huquqiy tizimni tashkil etgan. Diniy qoidalar inson ma’naviyatini shakllantirgan bo‘lsa, huquqiy hujjatlar

ushbu qadriyatlarni jamiyat hayotida mustahkamlagan. Ushbu uyg'unlik Sharq jamiyatida adolat va qonuniylikni ta'minlashning muhim omili sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi tahlildan ko'rinib turibdiki, "Mubayyin" asari islom dini asoslarini tizimli, izchil va amaliy jihatdan chuqur yoritgan mukammal diniy-badiiy manba hisoblanadi. Asarda e'tiqod, ibodat va axloq masalalari besh farz doirasida yaxlit bir tizim sifatida bayon qilinib, ularni ongli ravishda anglab, to'g'ri va komil ado etish g'oyasi ustuvor o'rin egallaydi. Muallif diniy qoidalarni faqat nazariy shaklda emas, balki kundalik hayot bilan bog'liq holda, aniq fiqhiy me'yorlar orqali tushuntiradi.

Asarning badiiy uslubda yozilgani, baytlar orqali ezgu amal va gunoh ishlar qiyoslab ko'rsatilgani kitobxonni fikriy mushohadaga undaydi, axloqiy tanlov qilishga yo'naltiradi. Ilmning ulug'lanishi, Allohning sifatlari va Payg'ambar Muhammad (s.a.v) haqidagi mulohazalar asarning ma'naviy-tarbiyaviy qiymatini yanada oshiradi. Tahorat, suvdan foydalanish, halol-harom masalalariga oid fiqhiy qoidalar esa islomiy ta'limotning amaliy va huquqiy jihatdan ham mukammal ekanini ko'rsatadi.

Umuman olganda, "Mubayyin" o'zbek tilida yaratilgan diniy-badiiy merosning yorqin namunasi bo'lib, u islomiy ma'naviyatni xalqona, ravon va ta'sirchan uslubda targ'ib etadi. Asar nafaqat diniy bilim manbai, balki insonni ma'naviy kamolotga, mas'uliyatli va pok hayot tarziga chorlovchi muhim ma'rifiy qo'llanma sifatida ham ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. А.Урунбаев, Т.Хорикаева, Т.Файзиев, Г.Джураева, К.Исогай. Каталог Хивинских казийских документов XIX-начало XX вв. Ташкент-Киото, 2001, V-стр.
2. **Бобур 3.** Мубаййин / Масъул мухаррир: А. Рустам. – Т.: А. Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2000. – 184 б.
3. Ўз.Рес. ОЎМТВ. Ўзбекистон Республикаси фанлар академияси Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик институти. Тарихий манбашуносликнинг долзарб муаммолари. ТДПУ “ризोगраф” Т., 2001, 112-бет.
4. А.Урунбаев, Т.Хорикаева, Т.Файзиев, Г.Джураева, К.Исогай. Каталог Хивинских казийских документов XIX-начало XX вв. Ташкент-Киото, 2001, VIII-стр.
5. С.Б.Шадманова, М.М.Юлдашев. ЎЗР ФА Тарих институти. Тарихий тадқиқотларнинг методологиясиз азамонавий усуллари. “O‘zbekiston”, Т., 2019, 142-бет.
6. Қўқон давлат музей кўриқхонаси. КП(кирим китоби)-3568, ДП(хужжатли ёдгорлик)-2331, 52/6-коллекция.
7. Қўқон давлат музей кўриқхонаси. КП(кирим китоби)-3568, ДП(хужжатли ёдгорлик)-2331, 52/7-коллекция.
8. Қўқон давлат музей кўриқхонаси. КП(кирим китоби)-3568, ДП(хужжатли ёдгорлик)-2331, 52/9-коллекция.
9. Қўқон давлат музей кўриқхонаси. КП(кирим китоби)-3568, ДП(хужжатли ёдгорлик)-2331, 52/11-коллекция.
10. Муҳаммад Яҳёхон Хўқандий. “Хўқанди Латиф манокиби” (Тазкира). “Мовароуннахр”, 2018, 95-бет.
11. QOMUS.INFO onlayn ensiklopediya (электрон ресурс) (кириш вақти 08.01.2021) (соат 15:43)
12. А.Л.Троицкая. Каталог архива Кокандских ханов XIX века. Издательство “НАУКА” Москва 1968, стр. 9.
13. ЎЗРМДА И-19-фонд, 1-рўйхат, 34472-иш, 2-(вақф хужжати)бет.
14. ЎЗРМДА И-19-фонд, 1-рўйхат, 34474-иш, 2-(вақф хужжати)бет.